

Zamonaviy filologik tadqiqotlar:

nazariya, amaliyot va innovatsion
metodlar

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

Qarshi-2025

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

**ZAMONAVIY FILOLOGIK
TADQIQOTLAR: NAZARIYA,
AMALIYOT VA INNOVATSION
METODLAR**

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

2025-yil 24 oktabr

QARSHI – 2025

UO`K81.(063):001.891

BBK 81.9043

“Zamonaviy filologik tadqiqotlar: nazariya, amaliyot va innovatsion metodlar” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Qarshi, 2025. – 733 bet.

Mazkur to'plamda zamonaviy filologiyaning dolzarb masalalari — nazariy yondashuvlar, amaliy tahlil usullari hamda innovatsion metodlarning qo'llanilishi yoritilgan. Unda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalariga oid ilmiy maqolalar jamlangan bo'lib, zamonaviy tadqiqot uslublarining samaradorligi, til va adabiyotdagi yangi tendensiyalar, lingvokulturologik yondashuvlar va raqamli texnologiyalar asosida olib borilayotgan filologik izlanishlar tahlil qilingan. To'plam filologiya sohasi tadqiqotchilari, doktorantlar, magistrantlar hamda til va adabiyotga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga uchun mo'ljallangan.

MAS'UL MUHARRIR

Xo'jamurod Jabborov – filologiya fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI

Raxmonov L.T.	– Osiyo texnologiyalar universiteti rektori
Davlatov O.D.	– Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qoshidagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti direktori, filologiya fanlari doktori, professor
Ibragimov E.X.	– Osiyo texnologiyalar universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori
Axunjonov U.M.	– Osiyo texnologiyalar universiteti Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori
Abdullayev O'.Sh.	– Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig'i
Hamidov X.X.	– Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Shofiyev O.B.	– Termiz davlat universiteti prorektori, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
G'aniyev I.M.	– filologiya fanlari doktori, professor
Kilichev B.E.	Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Daniyeva M.	– Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Imomova G. M.	– Osiyo texnologiyalar universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Ochilov N.K.	– Osiyo texnologiyalar universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Xo'jamurodova O.X.	– Osiyo texnologiyalar universiteti Tillar kafedrasini mudiri
Normamatov X. M.	– Osiyo texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi
Shomurotova Ch.R.	– Osiyo texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

Ushbu ilmiy – amaliy anjuman materiallari Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy Kengashining xulosasiga muvofiq nashrga tavsiya etilgan (2025-yil 27-sentabr, 2-son bayonnoma)

To'plamga kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riligi, stilistik bexatoligi uchun mualliflar mas'uldir.

© Osiyo texnologiyalar universiteti, 2025.



78.	Boqiyev Nurali Abdurashid o'g'li, Olimjonova Maftunaxon Omiljon qizi MUQOBILI YO'Q SO'ZLARNI TARJIMA QILISH USULLARI	321
79.	Javliyev Feruz Komilovich JAHON ILM-FANIDA INSON SALOMATLIGINI AXLOQIY-ESTETIK ASOSLARINI SAQLASH VA UNI MUSTAHKAMLASH MUAMOLARI	326
80.	Акромов Насиба Хамитовна, Каримов Ислом Одилевич ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА У ШКОЛЬНИКОВ В ШКОЛАХ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ	329
81.	Abdumalikova Gulshoda Shuhrat qizi, Soliyeva Zilola Ma'murjon qizi KOMPYUTER LINGVISTIKASI SOHASI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI	333
82.	Аннаева Лола Расуловна ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ XXI ВЕКА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ	337
83.	Sobirova Zarnigor G'anijon qizi TRANSFORMER MODELLARI YORDAMIDA O'ZBEK TILI MATNIDA TINISH BELGILARINI TIKLASH	342
84.	Bozorova Sevara Kamol qizi O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SAVDO LEKSIKASINING TANQIDIY DISKURS TAHLILI	348
85.	Elmirzaeva Zarina Obidin qizi GUL LEKSEMASI ASOSIDAGI KONNOTATSIYALARDA MILLIY-MADANIY BELGILAR IFODASI	352
86.	Mamatova Shakhnoza Hoshim qizi COMPARATIVE LINGUISTIC APPROACHES TO THE ADAPTATION OF INFORMATION TECHNOLOGY TERMS IN THE UZBEK LANGUAGE	355
87.	Daliev Ezoza THE IMPACT OF DIGITAL DISTANCE LEARNING ON FOREIGN LANGUAGE ACQUISITION	359
4-SHO'BA. ADABIY ALOQALAR VA TARJIMA MUAMMOLARI		361
88.	Xayrulla HAMIDOV "CHOLIQUCHI" ROMANI O'ZBEK TILIDA	361
89.	Xayrulla HAMIDOV, Otabek MUXAMMADJONOV SINXRON TARJIMADA KOMMUNIKATIV VAZIYAT	367
90.	Marufjon Karimov "O'TKAN KUNLAR" ROMANIDAGI TASVIRIY VOSITALAR TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI	371
91.	Marufjon Karimov "O'TKAN KUNLAR" ROMANIDAGI SINEKDOXANING BADIY FUNKSIYASI VA TARJIMALARDA AKS ETISH MASALASI	375
92.	Yokubjonova Dilnavozxon Serobjon qizi TRANSLATION PROBLEMS AND THEIR IMPACT ON WORLD LITERATURE	378
93.	Hazratqulova Ozoda Abdug'aniyevna	383



SINXRON TARJIMADA KOMMUNIKATIV VAZIYAT

Xayrulla HAMIDOV, Filol. f. d., professor,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

E-mail: hamidovx@gmail.com

Otabek MUXAMMADJONOV,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti,

e-mail: muhammadjonov581@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sinxron tarjima jarayonidagi kommunikativ vaziyat, shuningdek, tarjima sirasida xabarni tushunish va talqin etishga ta'sir ko'rsatadigan omillar, ijtimoiy sharoitlar, muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar, muloqot joyi, vaqti hamda maqsadini o'z ichiga oluvchi kommunikativ kontekst xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: sinxron tarjima, kommunikativ vaziyat, kommunikativ kontekst, adresat (adresant), verbal (noverbal) muloqot akti.

Axborot almashinuvi kengaygan, globallashuv jarayonlari hayotimizga shiddat bilan kirib borayotgan bugungi kunda sinxron tarjimaga tobora ortib borayotgan kundalik ehtiyoj, o'z navbatida, malakali sinxron tarjimonlarni yetishtirish, ushbu sohaga bo'lgan ehtiyojning o'sishiga olib kelmoqda. O'tkazilayotgan ko'p tilli anjumanlar nafaqat xalqaro muammolarni hal qilishga, balki ilm-fan, adabiyot, san'at va boshqa sohalarda fikr, tajriba almashishga va turli sohalar rivojiga hissa qo'shishga yo'naltirilgan. Shu boisdan, sinxron tarjimaning amaliy ahamiyati, o'ziga xosliklari va o'rgatish metodlari bo'lajak tarjimonlar uchun juda muhimligi ko'zga tashlanmoqda.

Til madaniyatlar orasidagi muhim vositaga aylangan bir davrda sinxron tarjimaning o'zni ham katta ahamiyat kasb etadi. Real vaqt rejimida nutqni bir tildan ikkinchisiga o'tkazish orqali xalqaro muloqotni yanada samarali va qulay shaklda tashkil etishning yangidan yangi imkoniyatlari tug'ilmoqda. Bu jarayon nafaqat til to'siqlarini bartaraf etish, balki davlatlar o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni o'rnatish va mustahkamlashda muhim ko'priq sifatida xizmat qilmoqda.

Sinxron tarjima deganda, og'zaki professional tarjima faoliyatining asosiy shakli, tashkiliy jihatdan eng murakkab turi bo'lib, ketma-ket tarjimadan farqli ravishda notiq nutqini bir vaqtning o'zida deyarli to'xtovsiz tarjima tiliga o'girish tushuniladi. Sinxron tarjima xususida so'z borganda, avvalo, uning bir necha xillari, usullaridan ko'proq uning amalga oshirilishi jarayoni, ya'ni muloqot (kommunikativ) vaziyat ustida to'xtalish maqsadga muvofiq.



Kommunikativ vaziyat – bu ishtiroqchilarni muloqotga undaydigan va ularning nutq soʻzlash va tinglash jarayonidagi xatti-harakatlarini belgilaydigan haqiqiy va tasavvuriy omillar majmuasidir. U qatnashchilarni (soʻzlovchi va tinglovchi), ular orasidagi munosabatlarni, muloqotning maqsadi va ohangini, surʼati, maromi, shuningdek, muloqot joyi va vaqtini oʻz ichiga oladi. Aslida, bu ishtirokchilar muloqotga kirishib, fikrlar, his-tuygʻular va maʼlumotlarni almashadilar. Kommunikatsiya deganda tor maʼnoda bir maʼlumotni bir joy, shaxs yoki guruhdan boshqasiga uzatish tushuniladi. U kamida bitta joʻnatuvchi, xabar beruvchi va qabul qiluvchini oʻz ichiga oladi. Muloqot vaziyatining yana bir nomi *“kommunikativ akt”* boʻlib, *joʻnatuvchi (adresant⁵)*, *qabul qiluvchi (adresat⁶)*, *xabar (axborot)*, *uzatish kanali*, shuningdek, *kontekst va kod (belgi va belgilar tizimi)* dan iborat aloqa birligi (axborot almashinuvi birligi)dir.

U bir tuzilma sifatida turli kanallar va kodlar yordamida axborotni yaratish va idrok etish bosqichlaridan oʻtib, xabarni yaratuvchi, joʻnatuvchi va uni idrok etuvchi, yaʼni qabul qiluvchini oʻz ichiga oladi. Shu maʼnoda kommunikativ akt axborotni yuzaga keltirish (hosil qilish) va uni qabul qilish bosqichlaridan iborat murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat ogʻzaki (*verbal*) nutq orqali, balki *nonverbal* vositalar, yaʼni imo-ishoralar, mimika, tana harakatlari, nigoh, libos, hidlar hamda muloqotdagi masofa kabi belgilar orqali ham amalga oshadi. Bu yerda xabarni tushunish va talqin etishga taʼsir koʻrsatadigan barcha omillarning majmui hisoblangan, ijtimoiy sharoitlar, muloqot ishtirokchilari oʻrtasidagi munosabatlar, muloqot joyi, vaqti hamda maqsadini oʻz ichiga oluvchi *kommunikativ kontekst* muhim ahamiyat kasb etadi.

Misollarga murojaat qilamiz. Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Szipinning Boao Osiyo Forumi (博鳌亚洲论坛⁷) dagi nutqida shunday bir jumla kechadi:

我们要坚持共商共建共享原则，推动构建人类命运共同体，让发展成果惠及更多国家和人民。 Tarjimasi: *“Biz umumiy maslahatlashuv, birgalikda qurish va boʻlishish tamoyiliga sodiq qolishimiz, insoniyat taqdirining yagona hamjamiyatini shakllantirishni davom ettirishimiz hamda rivojlanish natijalari barcha mamlakatlar va xalqlarga foyda keltirishini taʼminlashimiz kerak”*.

Parchaning kommunikativ akt jihatdan tahlili quyidagicha:

Aspekt	Tavsif
Kommunikativ	<i>Integratsiya va hamkorlik gʻoyasini ilgari surish; Xitoy tashqi</i>

⁵ *Adresant* - Maʼlumot joʻnatuvchi (soʻzlovchi). Bu boshqa shaxsga xat, telegramma, posilka yoki boshqa xabar yuboradigan shaxs yoki tashkilot.

⁶ *Adresat* - bu kommunikatsiya jarayonida axborotni oluvchi ishtirokchi boʻlib, u xabarni eshitadi, tushunadi va unga munosabat bildiradi.



maqsad	<i>siyosatining tinchlikparvar yo'nalishini namoyish etish.</i>
Adresant	<i>Si Szinpin – Xitoy Xalq Respublikasi raisi.</i>
Adresat	<i>Boao forumidagi xalqaro ishtirokchilar (davlat rahbarlari, iqtisodiy delegatlar, xalqaro OAV).</i>
Kommunikativ kontekst	<i>Xalqaro iqtisodiy forum; Xitoyning global siyosiy nutqi; siyosiy-ideologik muloqot.</i>
Tilning pragmatik xususiyati	<i>Xitoy Xalq Respublikasi raisining nutqi diplomatik, jamoaviylik ("biz", "hamkorlik", "umumiy")ni aks ettiradi.</i>
Nonverbal elementlar	<i>Si Szinpin odatda tinch-sokin ohangda, barqaror mimika bilan, qo'lini pastga qaratgan holda ohista imo bilan gapiradi. Bu esa "barqarorlik" va "ishonchlilik"ni bildiradi.</i>
Tarjimonning roli	<i>Sinxron tarjimon mazmuniy aniqlikni saqlab, Xitoy siyosiy nutqining diplomatik ohangini yumshatmay yetkazishi kerak. "共建共享" (birgalikda qurish va bo'lishish) kabi siyosiy formulalar aniq ekvivalent bilan tarjima qilinadi.</i>

Muloqot akti, ta'kidlanganidek, **verbal** va **noverbal** turlarga bo'linadi. **Verbal** muloqot akti, insonlar o'rtasida og'zaki yoki yozma til vositasida axborot va ma'no almashish jarayoni bo'lib, bunda til so'zlarni yetkazish vositasi emas, ishora tizimi sifatida ham xizmat qiladi. Muloqot nafaqat nutq, o'qish va tinglash orqali so'zlarni uzatish, tushunishni, balki fikrlar, his-tuyg'u va maqsadlarni ifodalashda turli belgi va ramzlardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi.

Noverbal muloqot akti esa suhbatdoshga his-tuyg'ular va munosabatni so'zlardan foydalanmasdan yetkazish jarayoni bo'lib, bunda yuz ifodalari, imo-ishoralar, intonatsiya, tana holati, jismoniy masofa, tashqi ko'rinish (masalan, kiyim-kechak, soch turmagi) kabi vositalar orqali axborot uzatiladi. Og'zaki bo'lmagan belgilar ko'pincha samimiylikni ifodalaydi va og'zaki nutqqa qo'shimcha ma'no yuklaydi, shu orqali muloqot yanada boy va ta'sirchan bo'ladi.

Xitoy rasmiylarining tadbir va anjumanlardagi noverbal muloqotiga misollar:

Yuz ifodasi (mimika). Boshqa millat vakillaridan qisman farqli o'laroq, xitoy spikeri nutq davomida muloyim tabassum bilan tinglovchilarga murojaat qiladi. Bu samimiylik va hurmat belgisidir. Shuningdek, jiddiy mavzular muhokama qilinayotganda yuz ifodasi keskinlashadi va bu mavzuga bo'lgan e'tibor va mas'uliyatni aks ettiradi.

Nigoh (ko'z bilan aloqa). Xitoy madaniyatida birovga uzoq vaqt tikilib turish odob-axloq qoidalariga to'g'ri kelmaydi, shuning uchun spiker odatda tinglovchilarga uzoq vaqt davomida tikilib turmaydi. Bu esa tinglovchilarga nisbatan hurmat ifodasi hisoblanadi.

Tik o'tirish. Rasmiylar odatda tadbirlar paytida, qadr-qimmat va diqqatni jamlash uchun qo'llarini stolga yoki tizzalariga qo'yib, tik o'tirishadi. Hukumat matbuot anjumanlari yoki



xitoylik va xorijiy amaldorlar o'rtasidagi uchrashuvlar paytida rasmiylar hurmat yuzasidan orqaga suyanish yoki chayqalishdan tiyilib, tik holatda o'tirishadi. Bular hammasi noverbal muloqot harakat (akt)i hisoblanadi.

Xulosa. Sinxron tarjimada kommunikantlarni muloqotga undovchi va ularning nutq so'zlash va tinglash jarayonidagi xatti-harakatlarini belgilovchi omillar majmuasi hisoblangan kommunikativ vaziyat mavzusi o'rganilayotganda madaniyatlararo muloqot (kommunikatsiya)ga ham alohida e'tibor berilishi lozim va bu alohida maqola mazmunini tashkil etadi.

Umuman olganda, kompyuter texnologiyalari barq urib rivojlanayotgan, sun'iy intellekt hayotimizga to'la kirib kelgan bugungi kunda sinxron tarjima ham yangi sifat bosqichga ko'tarilmoqda. Tashkil etilayotgan treninglar, xalqaro simpoziumlar, konferensiyalar va shu kabi yirik xalqaro tadbirlarda har qanday tarjimon ham xizmat suiflati xizmat ko'rsata olmaydi. Demak bu sohada o'ziga xos raqobat atmosferasi yuzaga keladi va faqat o'z sohasining haqiqiy mutaxassisi, tilni chuqur biladigan, har sohadan xabardor, mutafannin tarjimon-mutaxassislargina oyoqda tura oladi, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamidov X., Davronova D. Sinxron tarjimada siyosiy terminlarni o'girishning leksik-frazeologik muammolariga doir // "VIII tarjimashunoslari forumi" (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari). –Toshkent: TDSHU, 2024. -352 b.
2. Hamidov X, Hasanova Sh. Ruscha sinxron tarjima terminlarining o'zbekcha izohli lug'ati/lug'at/-Toshkent:Nodirabegim ,2020.-184 b.
3. Клюев Е.Н. Речевая коммуникация М.: ПРИОР, 1998. - 224с.
4. Ширяев А.Ф. Синхронный перевод: Деятельность синхронного переводчика и методика преподавания синхронного перевода. Воениздат, 1979 - 183 с.
5. 车琳著.《非言语交际成分多维度研究》黑龙江大学出版社 2020. - 页数: 228
6. https://www.fmprc.gov.cn/mfa_eng/zy/jj/2015zt/xjpcxbayzlt2015nnh/202406/t20240606_11381658.html?utm_source
7. <https://journal.sovcombank.ru/zhizn/verbalnaya-kommunikatsiya-chto-eto-takoe-vidi-i-priemi>